




Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-fevral)

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd.so'm, o'zgarish sur'ati, % da**



B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqaradigan sanoat

D - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylari da viloyatimiz korxonalarini tomonidan 8 320,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 103,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 79,9 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 26,4 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 3,5 % ga o'sishiga xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 46,8 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 4,2 % ga pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 982,8 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,8 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 650,0 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,9 % ini tashkil etdi.





Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2019 yil yanvar-fevral oylarida - 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,6 % (6,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 87,1 % (86,0 %) va quyi texnologiyali - 7,0 % (7,5 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,7 % (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 109,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 79,0 % (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,7 % (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,9 %), oziq-ovqat va ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,0 % (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,3 % (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,4 %) ni tashkil etdi.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalarini
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevral	2020-yil yanvar-fevral	2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, <i>ming tonna.</i>	490	502	102,4
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, <i>tonna.</i>	6544	9674	147,8
Ammoniy nitrat, <i>ming tonna azot</i>	42,6	30,2	70,9
Natriy gidroksidi (kaustik soda), <i>ming tonna.</i>	3,07	8,57	279,2
Kislorod, <i>ming m3.</i>	24,75	24,17	97,7
Temir beton, <i>tonna.</i>	6980,3	3581,0	51,3
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), <i>tonna.</i>	99,8	94,3	94,5
Ishlov berilgan suyuq sut, <i>tonna.</i>	188,21	198,14	105,3

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, portlandsement (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 102,4 %) hamda kaustik soda (2,8 m) mahsulotlarida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat (2019 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 70,9 %) mahsulotini ishlab shiqarish hajmining pasayishi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 681,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,2 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 26,4 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevral	2020-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	1637,2	2210,5	573,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	963,14	946,28	-16,86



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,4 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1% ini) tashkil etdi.




Yirik sanoat korxonalarini tomonidan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasidagi bajarilgan ishlar

	2019-yil yanvar-fevral	2020-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	3045,5	3717,6	672,1
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	-	7,5	7,5



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 468,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-fevral oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 56,2 % dan 61,2 % gacha kupayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino - aroq mahsulotlari va pivo 0,02 % (2019-yil yanvar-fevral oylarida 0,02 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 32,5 % ni, shuningdek, Xatirchi tumani 14,5 % ni, Karmana tumani 13,7 % ni, Qiziltepa tumani 12,6 % ni hamda Navbahor tumani 7,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (107,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahar (123,1 %) hamda Karmana tumanida (104,2 %) qayd etildi.



**Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,
tarkibi va o’sish sur’ati
(2020-yilning yanvar-fevral oylarida)**

	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	468,9	100,0	107,1
Navoiy sh.	152,4	32,5	123,1
Zarafshon sh.	26,7	5,7	101,3
<i>tumanlar</i>			
Karmana	64,5	13,7	104,2
Konimex	11,2	2,4	101,5
Qiziltepa	59,2	12,6	94,9
Navbahor	36,2	7,7	102,1
Nurota	32,2	6,9	102,2
Tomdi	4,9	1,1	101,7
Uchquduq	13,8	2,9	101,3
Xatirchi	67,8	14,5	101,2



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 148,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.




**Navoiy viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020-yil yanvar-fevral mlrd. so‘m	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	8 320,8	103,4
Navoiy sh.	6 948,6	104,1
Zarafshon sh.	29,9	85,8
<i>tumanlar</i>		
Karmana	946,5	120,3
Konimex	45,0	93,7
Qiziltepa	137,3	113,1
Navbahor	61,3	102,6
Nurota	40,8	101,9
Tomdi	6,3	101,7
Uchquduq	15,4	104,8
Xatirchi	89,7	98,6



Navoiy viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da




Viloyatimiz sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Navoiy shahri (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmning 83,5 %), Karmana (11,4 %), Qiziltepa (1,6 %), Xatirchi (1,1 %), hamda Navbahor (0,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Tomdi (0,1 %) hamda Uchquduq (0,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan choratadbirlar, Karmana (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 120,3 %), Qiziltepa (113,1 %) Uchquduq (104,8 %), tumanlarda hamda Navoiy (104,1 %) shahrida sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.


Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi
(2019 yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da)





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar-fevral oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 806,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 9,7 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Navbahor, Nurota, Tomdi tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Xatirchi (99,9 %), Uchquduq (99,5 %), Qiziltepa (89,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimizda hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʼrsatdiki, Navoiy shahrida (1,4 %), Konimex (25,5 %), Karmana (34,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalar soni, birlikda
(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatimizda 2 948 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'ssatmoqda, shundan 663 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,5 %) Navoiy shahriga, 467 tasi (15,8 %) Karmana tumaniga, 393 tasi (13,3 %) Xatirchi tumaniga to'gri kelmoqda.



**Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlikda
(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra)**





2020-yil yanvar-fevral oyida viloyatimizda 149 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, juladan 39 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini sonidagi ulushi 26,2 %) Xatirchi tumanida, 21 tasi (14,1 %) Karmana tumanida, 21 tasi (14,1 %) Navoiy shahrida, 21 tasi (14,1 %) Qiziltepa tumanida, 17 tasi (11,4 %) Zarafshon shahrida hamda 8 tasi (5,4 %) Nurota tumanida tashkil etildi.

**Navoiy viloyati statistika
boshqarmasining
sanoat statistikasi bo'limi**
Tel.: (79) 223-33-29